

“ UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI LOYIHALASH” BO 'YICHA AMALIY MUSOBAQA NIZOMI



QATNASHUVCHILAR YOSHI:

Asosiy – yoshi cheklanmagan;

Jamoa tarkibida 5 nafargacha a'zo.

VAZIFA TA'RIFI:

Masofadan boshqariladigan uchuvchisiz uchish apparatlarini (keying o'rinlarda UUA) loyihalashtirish orqali yukni minimal vaqt ichida ma'lum bir traektoriya bo'ylab belgilangan nuqtaga yetkazib berish.

Amaliy musobaqada korxonalar va tashkilotlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, harbiy qism va muassasalar qatnashishi mumkin.

MAQSADLARI:

1. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish sohasidagi mutaxassislarni bilim va ko'nikmalarni oshirish;
2. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish texnologiyalarini rivojlantirish va amaliyotda ishlatishni o'rganish;
3. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish yaratish va innovatsiyalarni ko'rsatish;
4. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish texnologiyalarining rivojlantirilishi va innovatsiyalarning oshirilishi, uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish sohasidagi yangiliklarni namoyish etish;
5. Musobaqa davomida ***“eng yaxshi Uchuvchisiz uchish apparatlarini***

loyihalachisi”ni aniqlash;

6. Uchuvchisiz uchish aparatlarini loyihalashtirish yo‘nalishi bo‘yicha noyob kadrlar zaxirasini yaratish.

MUSOBAQA SHARTLARI:

Ushbu bellashuv har xil jamoalar ishtirokida amalga oshiriladi.

Uchuvchisiz uchish aparatlarini uchish maydonchasi diametri 100sm bo'lgan yuzasiga joylashtiriladi (1-rasm).

Yashil rangli quti o'lchamlari (L×W×H): 25×25×15 sm bo'lgan yukni yetkazib berish uchun mo'ljallangan.

Ko'chiriladigan yuk ko'k rangda, tutqichli uzuk bilan jihozlangan. Ilinadigan qismning kengligi kamida 7 sm.

Uchuvchisiz uchish aparati to'siq ichidan uchub o'tish uchun belgilangan (to'siq 1 dona. Ichki oraliq diametri 100 sm bo'lgan va kamida 40 sm balandlikda joylashgan, ko'pburchakli element. (2-rasm).

Yuk modeli 3D printerda bosib chiqarish usuli bilan ishlab chiqariladi. Yuklarning o'lchamlari va modellari bir oz farq qilishi mumkin, og'irligi o'zgarmagan holda (3-rasm).

Yetkazib berish punktlarining joylashuvi musobaqa kuni aniqlanadi.

To'siqning joylashuvi musobaqadan oldin tanlanadi va musobaqa davomida o'zgarmaydi.

Vazifa – yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ri harakatlanish va to‘siqlar ichidan uchib o‘tish. Taqdim qilinadigan ishlanmalar (qurilmalar) davlat(lar) tomonidan seriyali ishlab chiqarilmaydigan bo‘lishi zarur. Seriyali ishlab chiqarilgan vositalarni konstruksiyalarni o‘zgartirish orqali ishlanmani taqdim qilgan jamoalar musobaqaga qabul qilinmaydi. Barcha ishlanmalar ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lishi zarur.

MUSOBAQANI O‘TISH TARTIBI:

Jamoa harakatlari hakamlarning signali asosida boshlanadi. Jamoaning operatori marshrut bo‘yicha to'siq orqasidan harakatlanishiga ruxsat beriladi. Ishlanma start chizig‘i oldida shay holda bo‘lishi talab etiladi. Jamoaning operatoriga hakamlardan biri hamrohlik qiladi. Marshrut bo‘ylab harakatlanish davomida operatorni almashtirishga ruxsat etilmaydi. Ishlanma belgilangan yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishi lozim va marshrutdan chiqib ketishi mumkin emas. Marshrut bo‘ylab harakatlanish vaqti 10 daqiqadan oshmasligi zarur.

Marshrutni o‘tish davomida to‘siqdan o‘tgandan so‘ng hisobchilar oq yoki qizil bayroq ko‘taradi. Oq bayroq to‘siq xatoliklarsiz o‘tganligi, qizil bayroq to‘siqni o‘tishda xatolik mavjudligini ifodalaydi.

Marshrut bo‘ylab harakatlanish davomida hakamlar natijalarni musobaqa bayonnomasiga kiritib boradi.

G‘oliblar tashkiliy qo‘mita tomonidan quyidagi tartibda mukofotlanadi:

- 1- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti;
- 2- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti;
- 3- o‘rin faxriy yorliq va pul mukofoti.



MUSABOQADA ISHTIROK ETISH UCHUN SO‘ROVNOMA

Komanda (muassasa) nomi	
Jamoa kattasi F.I.SH.	
Telefon, elektron manzil	
Tashkilot nomi, maktab raqami	
Musaboqa turi	
Qatnashuvchilarning F.I.SH. va tug‘ilgan yili. (5 nafardan oshmasligi zarur)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jamoa sardori 2. Qatnashuvchi 3. Qatnashuvchi 4. Qatnashuvchi 5. Qatnashuvchi


ISHLANMAGA QO‘YILGAN TALABLAR

Tavsifi	O‘lchov birligi	Qiymati asosiy
Uchuvchisiz uchish apartining uzunligi	sm	>150
Uchuvchisiz uchish apartining kengligi	sm	>150
Uchuvchisiz uchish apartining balandligi	sm	>50
Uchuvchisiz uchish apartining uchish balandligi	m	>15
Yuk ko‘tarish imkoniyati	g	500
Kuchlanish manbai	turi	akkumulyator batareyasi
Boshqaruv tizimi	turi	pultdan
Dvigateli	nomlanishi	chegaralanmagan
Dvigatel kuchi	kVt	chegaralanmagan
Batareya	turi	chegaralanmagan
Batareya sig‘imi	A/s	chegaralanmagan
Batareya kuchlanishi	V	chegaralanmagan
Batareykalar soni	dona	chegaralanmagan


HARAKAT YO'NALISHI NAMUNASI



1-rasm



2-rasm



3-rasm

BAHOLASH MEZONLARI

Ishtirokchi: _____

№	Nominatsiya bo'yicha	Ball	Baholash
1.	G'oya yoki loyihaning ilmiy va innovatsion yangiligi	0-15	
2.	G'oya yoki loyihaning aniq bir muammoning yechimiga yo'naltirilganligi	0-5	
3.	Mavjud analoglaridan afzalligi	0-5	
4.	Biznes modeli va monetizatsiyasi	0-5	
5.	G'oyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar	0-5	
6.	Eng yaxshi bajarilgan vaqt	0-15	
7.	Loyihaning musobaqa shartlariga mosligi	0-5	
8.	Harakatlanish va yuk ko'tarish imkoniyati musobaqa shartlariga mosligi	0-5	
9.	Boshqaruv tizimining imkoniyatlari musobaqa shartlariga mosligi	0-5	
10.	Yo'nalish bo'yichaharakatlanib vazifani bajarganligi, undan:	0-35	
	➤ Uchuvchisiz uchish apparatini platformadan havoga muvaffaqiyatli ko'tarish	0-5	
	➤ Yukni uchirish maydonchasidan va undan tashish bo'yicha topshiriqni bajarilishi	0-10	
	➤ Uchuvchisiz uchish aparatini operator uchun qulay bo'lgan istalgan yo'nalishda to'siq orqali o'tishi	0-10	
	➤ Uchuvchisiz uchish aparatini uchirish maydonchasiga muvaffaqiyatli qo'ndirish	0-10	
	JAMI:	100	

Hakamlar tarkibi: *Musobaqa raisi* _____

A'zolar: _____

